



BUDJET MABLAG'LARI BO'YICHA XARAJATLAR SMETALARI IJROSI HISOBINI YURITISH

THE ACCOUNTING OF THE EXECUTION OF BUDGET EXPENDITURE ESTIMATES

¹Norquchqorov Abdulaziz
Ziyodullayevich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD.

ORCID: 0000-0002-8207-127X,

G-mail: norquchqorovabdulaziz7@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada budjet tashkilotlarida smetalarni tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan. Budjet tashkilotlarida smetalarni tuzish va tasdiqlashning zarurligi nazariy jihatdan asoslangan. Unda budjet tashkilotlarida smetalarni tuzish va tasdiqlash tartibining amaldagi holatini tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Budjet tashkilotlarida smetalarni tuzish tartibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar berilgan.

Eng. - This article presents a description of the research conducted on the improvement of the procedure for drawing up and approving estimates in budget organizations. The need to prepare and approve estimates in budget organizations is theoretically based. In it, research was carried out to identify existing problems by analyzing the current state of budget organizations' preparation and approval procedure. Scientific and practical proposals and recommendations on improving the procedure for drawing up estimates in budget organizations are given.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ budjet tashkiloti, moliya yili, xarajatlar, xarajatlar smetasi, xarajatlar moddasi, daromadlar.

❖ budget organization, fiscal year, expenditure, expenditure estimate, expenditure item, income.

Kirish.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini yuqori darajaga olib chiqish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish — oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni

tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish" [2] belgilandi. Bu, o'z navbatida, budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallari tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibini takomillashtirishning ilmiy

jihtadan to'liq hal etilmaganligi tanlangan mavzuning nihoyatda dolzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Davlat dasturiga kiritilgan investitsion loyihalarning moliyalashtirilishi belgilangan. Kapital qurilish obyektlari bo'yicha kapital qurilish buyurtmachilari g'aznachilik xizmatlari bo'linmalariga tegishli iqtisodiyot va moliya organlari bilan kelishilgan, tasdiqlangan qurilishlarning manzilli ro'yxati va qurilishlarning titul ro'yxati asosida tuzilgan xarajatlarning oylar kesimidagi shakllantirilgan yoyilmasini taqdim etishi shart.

M. Ostonoqulovning fikricha, xarajatlar smetasi asosiy reja hujjati hisoblanib, tashkilotni saqlash uchun budjetdan beriladigan, kvartallar bo'yicha taqsimlanadigan xarajatlar va maqsadli yo'nalishli, hajmni aniqlaydigan hujjatdir [4].

Saxartsevaning fikricha esa, budjet tashkilotlari smetasi asosiy reja hujjati hisoblanadi, olinadigan daromadni tasdiqlaydigan va xarajatlarni amalga oshirishga ruxsat beradigan, mablag'larning yo'nalishi va hajmini aniqlaydigan, yil davomida o'z funksiyasini va maqsadini amalga oshiradigan hamda budjetni ijro etadi [5].

Budjet tashkilotlarida smeta asosiy hujjat hisoblanadi: maqsadli tushumlar, hajmini aniqlashi va mablag'lardan foydalanishi yil davomida tashkilotni saqlash uchun mablag' ajratilishini belgilaydi. Smetaning ajralmas qismi — mablag' ajratish rejasi bo'lib, u kvartallar bo'yicha taqsimlanadi va yillik summa ham ko'rsatiladi. Smetadan farqli ravishda, budjetdan maqsadli pul ajratishda xarajatlar quyidagi iqtisodiy klassifikatsiya bo'yicha turkumlanadi:

ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali oilalarga nafaqa va kam ta'minlanganlarga moddiy yordam, stipendiya va boshqalar);

ish haqidan ajratmalar;

kapital qo'yilmalar (Davlat investitsion dasturida ko'zda tutilgan va manzilli ro'yxat bo'yicha);

boshqa xarajatlar.

Ibragimov va Sugirbayev ta'kidlaganidek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan mablag' ajratish smetasi va rejasining shakllari tasdiqlanadi. Adabiyotlarga ko'ra, smeta quyidagicha guruhlanadi: individual, yig'ma va markazlashgan tadbirlar smetasi. Budjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetasi ijrosining buxgalteriya hisobi yuritilishi yordamida budjet va budjetdan tashqari mablag'lar xarajatlar smetalari ijrosi jarayonida moliyaviy, nomoliyaviy aktivlar, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari, joriy va yakuniy moliyaviy natijalar bo'yicha axborotlar shakllantiriladi hamda taqdim etiladi [9].

S. Mehmonovning ilmiy ishlarida yoritilganidek, budjet tashkilotlarida smeta tuzish bilan bog'liq buxgalteriya hisobining vazifalariga quyidagilar kiradi:

daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi jarayoni muomalalarini hujjatlashtirish va hisob registrilarida aks ettirish;

budjet tashkilotlarida daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi natijalarini shakllantirish;

budjet ijrosiga oid buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish va hisobotlarni tuzish;

buxgalteriya hisobini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish va boshqalar [6].

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va xarajatlarni qoplash uchun budjetdan ajratilgan mablag'lardan tashqari boshqa daromad manbalari mavjud bo'lgan budjet tashkilotlari budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar va daromadlar smetalarni tuzishlari zarur.

Budjet tizimi ko'p tarmoqli bo'lib, unda budjet tashkilotlari alohida ahamiyatga ega. Budjet tashkilotlari — davlatning aniq bir funksiyasini amalga oshirish maqsadida

belgilangan tartibda budget mablag'lari hisobiga saqlab turiladigan muassasalardir. Budget tashkilotlari davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar va budgetdan tashqari mablag'lar tushumlari hisobiga mablag' bilan ta'minlanadi hamda ushbu mablag'lar hisobiga belgilangan tartibda xarajatlarini amalga oshiradi.

Tuychiyev, Ostonoqulov, Ibragimov va Tursunovlarning yondashishicha, budget tashkilotlarida budget va budgetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosining buxgalteriya hisobi yuritilishi orqali ushbu mablag'lar bo'yicha smetalar ijrosi jarayonida aktivlar va ularning manbalari bo'yicha axborotlar shakllantiriladi hamda taqdim etiladi [7].

Ilmiy tadqiqot ishimdan qisqacha xulosa shuki, xarajatlar smetasini to'g'ri tuzish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartib va muddatga qattiq amal qilinsa, xato va kamchiliklar kuzatilishi kamdan kam uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Budget tashkilotlarida smeta tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirishning budget tashkilotlari hamda budget ijrosi jarayonida axborotlardan foydalanuvchilar uchun ahamiyatini, shuningdek davlat budjeti bilan bevosita bog'liqligini aniqlash hamda ularni kengroq izohlab berishni o'zida mujassamlashtiradi. A. Ostonoqulov ilmiy monografiyasida ta'kidlab o'tganidek, ma'lumotlarning raqamlarda ifodalanganligi sababli, asosan miqdoriy va sifat tahlil usullaridan foydalanilgan [8].

Tadqiqot jarayonida amaldagi holat, xorij tajribasi va mavjud ma'lumotlar o'rganilib,

tahlil qilingandan so'ng, asosan budgetdan moliyalashtiriladigan budget tashkilotlarining smetalari ijrosi hisobi va hisobotlari chuqur tahlildan o'tkaziladi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hozirgi kunga kelib, jami davlat oliy ta'lim muassasalari soni 210 taga yetdi. Shundan 115 tasi davlat oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallariga, 65 tasi nodavlat oliy ta'lim muassasalariga, 30 tasi esa xorijiy oliy ta'lim muassasalarining Respublikamiz hududidagi filiallariga to'g'ri kelmoqda. Foizlarda tahlil etsak, jami oliy ta'lim muassasalarining 55 foizi davlat oliy ta'lim muassasalariga, 31 foizi nodavlat oliy ta'lim muassasalariga, 14 foizi esa xorijiy oliy ta'lim muassasalarining Respublikamiz hududidagi filiallariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, 2023-yilga kelib respublikamizda faoliyat olib borayotgan 17 ta davlat oliy ta'lim muassasasining filiali institutga, 10 ta institut universitetga aylantirilgan bo'lib, jami 10 ta oliy ta'lim muassasasi transformatsiya qilingan. 2023-yilga kelib talabalar soni bir million uch yuz ming nafardan oshgan bo'lib, bu jami abituriyentlar qamrov darajasining 42 foizini tashkil etgan. Ushbu islohotlar oliy ta'limni moliyalashtirish tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Tahlillarimizga asoslanib aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalariga 2019-2023-yillarda ajratilgan mablag'lar miqdori faqat o'sish tendensiyasiga ega bo'lib kelmoqda (1-jadval).

1-jadval

OTMga davlat budgetidan ajratilgan mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasi va uning ijrosi to'g'risida ma'lumot (ming. so'm)*

Yillar	Xarajatlar	I-guruh «Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar»	II-guruh «Ish haqiga qo'shimchalar»	IV-guruh «Boshqa xarajatlar»	Jami
2021	Reja	31 332 320,5	4 422 923,2	4 225 970,9	39 981 214,6
	Moliyalashtirish	29 489 396,2	4 101 925,2	4 145 953,1	37 737 274,5

	Haqiqiy xarajat	29 483 500,4	4 101 925,2	2 363 297,4	35 948 723,0
2022	Reja	20 856 782,5	443 337,0	21 568 041,2	42 868 160,7
	Moliyalashtirish	20 856 210,3	440 095,6	21 568 041,2	42 864 347,1
	Haqiqiy xarajat	20 856 255,0	528 724,1	21 243 269,1	42 628 248,2
2023	Reja	31 140 848,0	1 011 159,0	27 063 378,7	59 215 385,7
	Moliyalashtirish	27 363 930,9	501 286,2	26 749 718,2	54 614 935,3
	Haqiqiy xarajat	27 833 002,9	118 420,4	27 799 485,6	55 750 908,9


*OTMning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari 2021-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda ilmiy tadqiqot obyektimizning xarajatlari smetasiga asosan, IV guruh bo'yicha yillik moliyaviy hisobotlarga tayanib shakllantirildi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, birinchi navbatda xarajatlarni to'g'ri rejalashtirib olish zarur. Besh yillik hisobotlar asosida shakllangan jadvalda III guruh xarajatlari mavjud emas. Bu esa shuni anglatadiki, budget mablag'laridan tadqiqot obyektimizda investitsion loyihalarni amalga

oshirish uchun mablag' ajratish rejalashtirilmagan.

Tadqiqot obyektimiz – oliy ta'lim muassasasi. Mazkur muassasaga 2021–2023-yillar davomida budgetdan ajratilgan mablag'lar oliy ta'lim muassasasi, hududiy moliya organi va yuqori turuvchi vazirlik bilan kelishilgan holda xarajatlarning rejalashtirilishi, moliyalashtirilishi va haqiqiy xarajatlari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksariyat yillarda budgetdan ajratilgan mablag'lar asosan IV guruh xarajatlari bo'yicha sarflanmoqda.



1-rasm. Davlat sektoridagi oliy ta'lim muassasasining budgetdan ajratilgan mablag'lar hamda ularni moliyalashtirish va to'lanishi keltirilgan¹

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, davlat budgeti mablag'larini hisobidan xarajatlarni rejalashtirish hajmi tahlil davrida 2,2 barobarga oshgan. Shu davrda bu mablag'larni moliyalashtirish, ya'ni xarajat

sifatida hisobga olish 2,1 barobarga, haqiqiy amalga oshirilgan xarajatlari esa 2,03 barobarga o'sgan. Demak, davlat sektoridagi oliy ta'lim muassasalarini budgetdan

¹OTMning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

moliyalashtirish hajmi yildan-yilga ortib borayotganini kuzatish mumkin.

Agar ushbu ma'lumotlarni foizlarda tahlil qilsak, o'sish sur'atlari yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, 2019-yilga nisbatan 2023-yilda davlat oliy ta'lim muassasasiga budjetdan ajratilgan mablag'larning rejalashtirilishi 126 foizga oshgan. Ushbu mablag'larni UzASBO dasturiy majmuasi orqali moliyalashtirish 110 foizga, haqiqiy amalga oshirilgan xarajatlar esa 103 foizga ko'paygan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim yillarda budjetdan ajratilgan mablag'lar hajmi ortiqcha bo'lib, natijada ularning bir qismi moliya yilining oxirida davlat budjetiga qaytarilmoqda.

Davlat oliy ta'lim muassasalarida budjet hisobi memorial order shakllarida yuritilib, buxgalteriya hisobini tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Jumladan, UzASBO-2 dasturiy majmuasi, my.soliq.uz, stat.uz, didox.uz, UzASBO Invoice kabi tizimlarda vakolatli shaxslarning elektron raqamli imzosi orqali hisob-kitob ishlari olib boriladi. Respublikadagi barcha davlat oliy ta'lim muassasalari buxgalteriya hisobi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda boshqariladigan UzASBO-2 dasturiy majmuasida yuritiladi.

Mazkur tizim orqali davlat sektoridagi oliy ta'lim muassasalarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi tushumlar, amalga oshirilayotgan xarajatlar va daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar shakllantirilishi yo'lga qo'yilgan.

Xulosa va takliflar.

Budjet tashkilotlarida xarajatlarning buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar olindi.

Umuman olganda, budjet tashkilotlari xarajatlar smetalarida ko'zda tutilgan xarajatlarning katta qismi davlat budjeti

hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bois, ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash hamda ular to'g'risidagi axborotlarni to'liq va ishonchli shakllantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Buning uchun budjet tashkilotlari smetalari mablag'lari hisobi amaldagi qonunchilik talablari asosida yuritilishi lozim.

Hozirgi kunda xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarning ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, tashkilot xodimlarining faol ishtiroki orqali xolislik va ma'lumotlar shaffofligini oshirish zarur. Bu esa budjet mablag'larini shakllantirish va sarflash yo'nalishlarining aniq hamda tezkor monitoringini amalga oshirish imkonini beradi.

Budjet tashkilotlarida smetalarni tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- budjet tashkilotlari shtatlar jadvalini namunaviy shtatlar jadvali asosida shakllantirishni ta'minlash, ta'lim muassasalarida esa tarifikatsiya tuzishda xodimlar tarkibi bo'yicha vakant lavozimlarga yo'l qo'ymaslik hamda ta'lim va tibbiyot tashkilotlarida kontingentlar sonining o'zgarishi bilan bog'liq jihatlarni inobatga olish;
- xarajatlar smetasining to'rtinchi guruhi – kommunal xizmatlar xarajatlarini rejalashtirishda ilova qilinadigan hisob-kitoblarning asosililigini ta'minlash;
- budjet tashkilotlari smetalarni ro'yxatdan o'tkazishning elektron tizimini yanada kengaytirish orqali smetalarni tuzish jarayonini soddalashtirish, smetalarga o'zgartirishlar kiritilishining oldini olish;
- smetalarning ijrosi hisobi va moliyaviy hisobotlar tahlilini yuritish, shuningdek, smetalar ijrosi ustidan nazoratni takomillashtirish bo'yicha uslubiy asoslarni yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining "2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi" qonuni. 2022 yil 25 dekabr, O'RQ-657-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrda "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi 414-sonli qarori.
4. Ostonoqulov M. Buxgalteriya hisobi. Toshkent.: Fan va texnologiyalar. 2007.
5. Mehmonov S.U. Budjet hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent.: Fan va texnologiyalar. 2012.
6. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Budjet hisobi. Darslik. – T.: "IQTISOD MOLIYA" 2018. 428 b.
7. Ibragimov A.K., Sugirbayev B.B. "Budjet nazorati va auditi" O'quv qo'llanma / T.: «infoCOM.UZ». 2009. 192 b.